| <b>Rasulov Baxtiyor Bahodirovich</b>                                                                                                                                                                                                                         |     |
| OLIY TA'LIM TIZIMIDA PROFESSOR-O'QITUVCHILAR RESURSI TAQSIMOTI: TALABA-O'QITUVCHI NISBATINING TOIFAVIY TAHLILI VA DIFFERENSIAL TARTIBGA SOLISH MASALALARI .....                                                                                              | 561 |
| <b>Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar qizi</b>                                                                                                                                                                                                                 |     |
| TO'QIMACHILIK SANOATI IQTISODIY SALOHİYATINING ASOSIY DETERMINANTLARI: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON UCHUN USTUVOR YO'NALISHLAR.....                                                                                                                        | 567 |
| <b>Yuldashev G'olibjon Turgunovich</b>                                                                                                                                                                                                                       |     |
| СТРАТЕГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВЫМ РАЗВИТИЕМ СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ .....                                                                                                                                                                       | 576 |
| <b>Абдуллаева Одинахон Гайратжон қизи</b>                                                                                                                                                                                                                    |     |
| BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASH MUAMMOSINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI .....                                                                                                                                                           | 583 |
| <b>Akramov Izzat Ikromovich</b>                                                                                                                                                                                                                              |     |
| <b>Rahmatov Shuxrat Axadovich</b>                                                                                                                                                                                                                            |     |
| ESG DISCLOSURE IN UZBEKISTAN'S STATE-OWNED ENTERPRISES: A REVIEW OF 2023 SUSTAINABILITY REPORTS.....                                                                                                                                                         | 588 |
| <b>Zamira Ataniyazova</b>                                                                                                                                                                                                                                    |     |
| TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA XODIMLARNING SHAXSIY BOSHQARUVINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                                                                                                | 594 |
| <b>Djumaniyazova Jamila Davronovna</b>                                                                                                                                                                                                                       |     |
| SURXONDARYO VILOYATIDA TURIZM INFRATUZILMASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....                                                                                                                                        | 599 |
| <b>Omonova Nigora Bahodir qizi</b>                                                                                                                                                                                                                           |     |
| EKSPORTYOR SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI .....                                                                                                                                           | 606 |
| <b>Shoxida Ibadullayeva</b>                                                                                                                                                                                                                                  |     |
| TASHQI SAVDODA VALYUTA NAZORATINING AYRIM TALABLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MAMLUKAT EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH .....                                                                                                                                  | 612 |
| <b>Israilov Avazbek Rustam o'g'li</b>                                                                                                                                                                                                                        |     |
| NAMANGAN VILOYATI HUDUDLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI .....                                                                                                                              | 624 |
| <b>Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li</b>                                                                                                                                                                                                                  |     |
| TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA AYOLLARNING IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH: RIDE-HAILING (RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI YO'LOVCHI TASHISH) XIZMATLARI MISOLIDA..... | 628 |
| <b>Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi</b>                                                                                                                                                                                                                 |     |
| KICHIK BIZNESDA ISHLAB CHIQUARISH RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....                                                                                                                                                  | 635 |
| <b>Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna</b>                                                                                                                                                                                                                    |     |
| KOMMUNAL XO'JALIKLARNI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIYOT RIVOJIDAGI O'RNI.....                                                                                                                                                                             | 640 |
| <b>Mardanova Mohidil Otabek qizi</b>                                                                                                                                                                                                                         |     |
| INTENSIV BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI .....                                                                                                                                                                 | 645 |
| <b>Kahorov Erkin Azizjonovich</b>                                                                                                                                                                                                                            |     |
| <b>Xolmuminov Shuxrat Shayzakovich</b>                                                                                                                                                                                                                       |     |



# INTENSIV BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION AGROTEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

**Kahorov Erkin Azizjonovich**  
Agrobank ATB  
ORCID: 0009-0008-9043-7260  
E-mail: agrobankceo@gmail.com

**Xolmuminov Shuxrat Shayzakovich**  
i.f.d., dotsent  
Raqqamli iqtisodiyot va agrotekhnologiyalar universiteti  
ORCID: 0000-0001-9565-1874  
E-mail: Shkholmuminov@gmail.com

**Annotatsiya.** Intensiv bog'dorchilik tizimida qo'llanilayotgan innovatsion agrotekhnologiyalarning samaradorligi, ularning hosildorlik, mahsulot sifati, suv va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida tahliliy, statistik, taqqoslash va kuzatuv usullaridan foydalanilgan. Natijalar tomchilatib sug'orish texnologiyasi suv resurslarini tejash va hosildorlikni oshirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Aqlli sensorlar va IoT texnologiyalari yordamida tuproq namligi, harorat hamda o'simliklar holatini doimiy nazorat qilish imkoniyati yaratilmoqda. Agrodron texnologiyalari katta maydonlarga qisqa vaqt ichida ishlov berish, o'simliklar holatini kuzatish va zararkunandalarga qarshi kurashishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Raqamli monitoring va aqlli agroplatformalar fermerlarga ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish hamda aniq va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini bermoqda.

**Kalit so'zlar:** innovatsion agrotekhnologiyalar, raqqamli qishloq xo'jaligi, agroinnovatsiya, agrodron, IoT sensorlari, aqlli monitoring tizimlari, raqqamli monitoring.

**Аннотация.** Проанализирована эффективность инновационных агротехнологий, применяемых в системе интенсивного садоводства, а также их влияние на урожайность, качество продукции и эффективность использования водных и трудовых ресурсов. В процессе исследования использованы аналитический, статистический, сравнительный методы и метод наблюдения. Результаты показали высокую эффективность технологии капельного орошения в экономии водных ресурсов и повышении урожайности. Использование интеллектуальных датчиков и технологий Интернета вещей (IoT) позволяет осуществлять постоянный мониторинг влажности почвы, температуры и состояния растений. Применение агродронов способствует оперативной обработке больших площадей, мониторингу состояния растений и эффективной борьбе с вредителями. Цифровой мониторинг и интеллектуальные агроплатформы позволяют фермерам оперативно анализировать данные и принимать точные и обоснованные решения.

**Ключевые слова:** инновационные агротехнологии, цифровое сельское хозяйство, агроинновации, агродроны, IoT-датчики, интеллектуальные системы мониторинга, цифровой мониторинг.

**Abstract.** The effectiveness of innovative agrotechnologies applied in intensive horticulture, as well as their impact on crop yields, product quality, and the efficient use of water and labor resources, is analyzed. Analytical, statistical, comparative, and observational methods were employed in the research. The results demonstrate the high efficiency of drip irrigation technology in conserving water resources and increasing crop yields. Smart sensors and Internet of Things (IoT) technologies enable continuous monitoring of soil moisture, temperature, and plant conditions. Agricultural drones facilitate the rapid treatment of large areas, plant monitoring, and effective pest control. Digital monitoring systems and smart agricultural platforms enable farmers to analyze data promptly and make accurate, evidence-based decisions.

**Keywords:** innovative agrotechnologies, digital agriculture, agricultural innovation, agricultural drones, IoT sensors, smart monitoring systems, digital monitoring.



## KIRISH

Intensiv bog'dorchilik an'anaviy bog'dorchilikdan yuqori hosildorligi, ixcham ekish tizimi, qisqa muddatda hosilga kirishi hamda zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilishi bilan farq qiladi. Bunday bog'larda daraxt ko'chatlari zich joylashtiriladi, sug'orish va oziqlantirish jarayonlari avtomatlashtiriladi hamda o'simliklar doimiy nazorat ostida bo'ladi. Natijada qisqa vaqt ichida yuqori va sifatli hosil olish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, intensiv bog'dorchilik fermer xo'jaliklarining iqtisodiy daromadini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Yunusov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda intensiv olma bog'larida nav-payvandtag va ko'chat qalinligining hosildorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslangan (Yunusov, 2025). Shuningdek, O'zbekistonda meva yetishtirish sohasining jadal rivojlanayotgani va intensiv bog'dorchilik eksport salohiyatini oshirayotgani ham qayd etilgan (Yunusov & Demirsoy, 2024).

Bugungi kunda suv resurslarining kamayishi va iqlim o'zgarishi qishloq xo'jaligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, suv resurslaridan oqilona foydalanish talab etiladigan hududlarda an'anaviy sug'orish usullarini resurs tejamon texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli resurs tejamon texnologiyalarni qo'llash muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Tomchilatib sug'orish tizimi, aqlli sensorlar va avtomatlashtirilgan monitoring vositalari orqali suvdan samarali foydalanish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa nafaqat hosildorlikni oshirishga, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. O'zbekistonning janubiy hududlarida suv tejovchi sug'orish texnologiyalarining samaradorligi bir qator tadqiqotlarda asoslab berilgan.

Xalqaro tajribada ham tomchilatib sug'orish tizimi hosildorlik, mahsulot sifati va suv unumdorligini oshirishda muhim rol o'ynashi qayd etilgan (Yang va b., 2023).

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligiga raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, masofaviy monitoring tizimlari va aqlli boshqaruv usullari keng kirib kelmoqda. Agrodronlar, IoT sensorlari, raqamli agroplatformalar va avtomatlashtirilgan sug'orish tizimlari intensiv bog'dorchilik samaradorligini oshirishda muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida tuproq namligi, harorat va o'simliklarning holatini doimiy nazorat qilish mumkin. Natijada kasallik va zararkunandalarni erta aniqlash, suv va o'g'it sarfini kamaytirish hamda mahsulot sifatini yaxshilash imkoniyati yaratilmoqda. IoT asosidagi aqlli sug'orish tizimlari suv sarfini kamaytirish va mikroiklim monitoringini yaxshilashda samarali vosita sifatida baholanmoqda (Kumar va b., 2024).

Shuningdek, O'zbekistonda raqamli qishloq xo'jaligi va innovatsion texnologiyalar agroindustrial kompleksni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida ko'rsatilgan (Yuldashev va b., 2019).

Dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasi innovatsion agroteknologiyalar intensiv bog'dorchilikni rivojlantirishda yuqori natija berayotganini ko'rsatmoqda. Isroil, Niderlandiya, AQSh va Xitoy kabi davlatlarda zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan intensiv bog'lar yuqori hosildorlikka ega bo'lib, xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirilmoqda. Ayniqsa, suv resurslaridan oqilona foydalanish talab etiladigan hududlarda tomchilatib sug'orish texnologiyasi orqali yuqori samaradorlikka erishilmoqda.

Xitoy olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yomg'ir suvlarini yig'ish va tomchilatib sug'orishni integratsiyalash suvdan foydalanish samaradorligini oshirishi aniqlangan (Zhang va b., 2021).

O'zbekistonda ham bog'dorchilik va meva-sabzavotchilikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda intensiv bog'lar maydoni kengayib, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hajmi ortmoqda. Davlat tomonidan suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash va raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shu bilan birga, ayrim hududlarda texnologik infratuzilmani yanada rivojlantirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish intensiv bog'dorchilikni izchil rivojlantirishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda intensiv bog'dorchilik va innovatsion agroteknologiyalar mavzusi qishloq xo'jaligi sohasidagi eng muhim ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalarni qishloq xo'jaligiga joriy etish hosildorlikni oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda muhim ahamiyatga ega.

Olimlar tomonidan intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy samaradorligi, ekologik afzalliklari hamda innovatsion texnologiyalarni qo'llash masalalari keng o'rganilgan (Yuldashev va b.).

Xorijiy tadqiqotlarda intensiv bog'dorchilik, asosan, resurs tejamonligi va yuqori hosildorlik bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Ayniqsa, suv resurslaridan oqilona foydalanish talab etiladigan hududlarda tomchilatib



sug'orish texnologiyasi samarali usullardan biri sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar ushbu tizim orqali suv sarfini sezilarli darajada kamaytirish bilan birga, o'simliklarning o'sish jarayonini barqaror nazorat qilish mumkinligini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, o'g'it va mineral moddalarni aniq me'yorda yetkazib berish hosil sifatining yaxshilanishiga xizmat qilishi qayd etilgan (Li va b., 2021).

Bir qator ilmiy ishlarda raqamli qishloq xo'jaligi texnologiyalarining intensiv bog'dorchilikdagi o'rni alohida ko'rib chiqilgan. IoT sensorlari, masofaviy monitoring tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi dasturlar tuproq namligi, havo harorati va o'simliklar holatini doimiy kuzatish imkonini beradi. Bu esa kasallik va zararkunandalarni erta aniqlash hamda hosilni yo'qotish xavfini kamaytirishga yordam beradi. Ayrim olimlar agrotexnologiyalarni qo'llash natijasida inson mehnati sarfining kamayishi va ishlab chiqarish xarajatlarining qisqarishini ham qayd etgan (Kumar, 2024).

Niderlandiya, Isroil va AQSh tajribasi intensiv bog'dorchilikni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar samarali natija berayotganini ko'rsatmoqda. Niderlandiyada issiqxona va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari orqali kichik maydondan yuqori hosil olinmoqda. Isroilda esa suv resurslaridan oqilona foydalanish sharoitida tomchilatib sug'orish va aqlli boshqaruv tizimlari yordamida bog'dorchilik rivojlantirilgan. Xitoyda agrodronlar va raqamli platformalar orqali katta maydonlarda o'simliklarni nazorat qilish tajribasi keng qo'llanilmoqda. Tadqiqotlarda yomg'ir suvlarini yig'ish va tomchilatib sug'orishni integratsiyalash suvdan foydalanish samaradorligini oshirishi aniqlangan (Zhang va b., 2021).

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy va ekologik jihatlarini tahlil qilingan. O'zbekiston sharoitida intensiv bog'lar eksportbop mahsulot yetishtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va fermerlar daromadini oshirishda muhim omil sifatida baholanadi. Shu bilan birga, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish mamlakatda suv resurslaridan oqilona foydalanishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi ta'kidlanadi (Shavazov va b., 2025).

Ayrim tadqiqotlarda intensiv bog'dorchilikni yanada rivojlantirish imkoniyatlari ham ko'rsatib o'tilgan. Xususan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, texnik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va malakali mutaxassislarni tayyorlash ko'plab fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ayrim hududlarda internet va raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish agrotexnologiyalarni keng joriy etish imkoniyatlarini oshiradi. Tadqiqotlarda O'zbekistonda innovatsion suv va energiya texnologiyalarini boshqarish jarayonida infratuzilma va boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligi qayd etilgan (Hamidov va b., 2022).

Ilmiy tadqiqotlarning aksariyati intensiv bog'dorchilikda innovatsion agrotexnologiyalarni qo'llash kelajakda qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lishini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish sharoitida zamonaviy texnologiyalar asosida ishlash yuqori iqtisodiy natijalarga erishish imkonini berishi ta'kidlanmoqda (1-jadval).

1-jadval  
Intensiv bog'dorchilikda innovatsion texnologiyalarning ayrim afzalliklari<sup>1</sup>

| Texnologiya turi       | Asosiy vazifasi                   | Natijasi                       |
|------------------------|-----------------------------------|--------------------------------|
| Tomchilatib sug'orish  | Suvni aniq me'yorda yetkazish     | Suv sarfi kamayadi             |
| Agrodron               | O'simliklarni kuzatish va purkash | Mehnat unumdorligi oshadi      |
| IoT sensorlari         | Tuproq va namlik monitoringi      | Hosil sifati yaxshilanadi      |
| Raqamli monitoring     | Masofadan nazorat qilish          | Kasalliklar erta aniqlanadi    |
| Aqlli agroplatformalar | Ma'lumotlarni tahlil qilish       | Qaror qabul qilish osonlashadi |

Jadvalda intensiv bog'dorchilikda qo'llanilayotgan asosiy innovatsion agrotexnologiyalar va ularning amaliy ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Tahlillarga ko'ra, tomchilatib sug'orish texnologiyasi suv resurslaridan samarali foydalanishda muhim o'rin egallaydi. Ushbu tizim suvni o'simlik ildiziga kerakli miqdorda yetkazib berishi sababli ortiqcha suv sarfi kamayadi va hosildorlik barqarorlashadi.

Agrodron texnologiyasi katta maydonlardagi o'simliklarni kuzatish va kimyoviy ishlov berish jarayonlarini tezlashtiradi. Natijada inson mehnati yengillashib, vaqt va xarajatlar tejaladi. IoT sensorlari esa tuproq namligi, harorat va boshqa muhim ko'rsatkichlarni doimiy nazorat qilish imkonini beradi. Bu o'simliklarning normal rivojlanishiga yordam berib, hosil sifatini yaxshilaydi.

Raqamli monitoring tizimlari yordamida bog'larni masofadan boshqarish va nazorat qilish mumkin bo'ladi. Ushbu texnologiyalar kasallik va zararkunandalarni dastlabki bosqichda aniqlash imkonini yaratadi. Aqlli agroplatformalar esa turli ma'lumotlarni tahlil qilish orqali fermerlarga tez va aniq qarorlar qabul qilishda yordam

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi




beradi. Shu sababli innovatsion agrotekhnologiyalar intensiv bog'dorchilik samaradorligini oshirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Intensiv bog'dorchilikni rivojlantirishda innovatsion agrotekhnologiyalarni qo'llash nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, suv resurslaridan oqilona foydalanish talab etiladigan hududlarda zamonaviy sug'orish tizimlari katta ahamiyat kasb etmoqda. Tomchilatib sug'orish texnologiyasi orqali suvning ortiqcha sarfi kamayadi va o'simliklarning normal rivojlanishi uchun zarur namlik saqlanib qoladi.

Bundan tashqari, raqamli monitoring tizimlari fermerlarga o'simliklar holatini masofadan kuzatish imkonini beradi. Bu esa kasallik va zararkunandalarni dastlabki bosqichda aniqlashga yordam beradi. Agrodron texnologiyasi orqali katta maydonlarga qisqa vaqt ichida ishlov berish mumkin bo'lib, inson mehnati va vaqt sarfi kamayadi. Shu sababli innovatsion agrotekhnologiyalar zamonaviy intensiv bog'dorchilikning ajralmas qismiga aylanmoqda (1-rasm).

### Intensiv bog'dorchilikda innovatsion agrotekhnologiyalar ulushi



1-rasm. Intensiv bog'dorchilikda innovatsion agrotekhnologiyalarning ulushi<sup>2</sup>

Rasmda intensiv bog'dorchilikda keng qo'llanilayotgan innovatsion agrotekhnologiyalar ulushi tasvirlangan. Tahlil natijalariga ko'ra, tomchilatib sug'orish tizimi eng yuqori ko'rsatkichni egallagan. Bu texnologiya suv resurslarini tejash va hosildorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, agrodronlar va IoT sensorlari kabi zamonaviy texnologiyalar ham bog'dorchilik samaradorligini oshirishda keng qo'llanilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda intensiv bog'dorchilikni rivojlantirishda innovatsion agrotekhnologiyalarning ahamiyatini o'rganish va tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot davomida ilmiy manbalarni o'rganish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish hamda xorijiy va mahalliy tajribalarni taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini qishloq xo'jaligi, intensiv bog'dorchilik va zamonaviy agrotekhnologiyalar bo'yicha chop etilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar, internet manbalari hamda xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlari tashkil etdi. Xususan, suv tejovchi texnologiyalar, raqamli qishloq xo'jaligi va aqlli boshqaruv tizimlari bo'yicha ilmiy qarashlar o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida tahliliy usul orqali innovatsion agrotekhnologiyalarning intensiv bog'dorchilikdagi iqtisodiy va amaliy samaradorligi baholandi. Taqqoslash usuli yordamida an'anaviy bog'dorchilik va intensiv bog'dorchilik tizimlari o'rtasidagi farqlar o'rganildi. Shu bilan birga, Isroil, Niderlandiya va Xitoy kabi davlatlarning zamonaviy bog'dorchilik tajribasi tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mahsulot sifatining yaxshilanishi eksport salohiyatining oshishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy agrotekhnologiyalar asosida yetishtirilgan mevalar tashqi bozorda yuqori talabga ega bo'ladi. Ayniqsa, eksport

2 Muallif ishlanmasi



uchun mahsulot yetishtirishda mevaning tashqi ko'rinishi, sifati va saqlanish muddati muhim hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar ushbu talablarni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval  
Intensiv bog'dorchilikning iqtisodiy afzalliklari<sup>3</sup>

| Ko'rsatkich          | An'anaviy bog'dorchilik | Intensiv bog'dorchilik |
|----------------------|-------------------------|------------------------|
| Hosildorlik darajasi | O'rtacha                | Yuqori                 |
| Suv sarfi            | Ko'p                    | Kam                    |
| Mehnat unumdorligi   | Pastroq                 | Yuqori                 |
| Mahsulot sifati      | Barqaror emas           | Yuqori sifatli         |
| Eksport imkoniyati   | Cheklangan              | Keng                   |
| Daromad darajasi     | O'rtacha                | Yuqori                 |

Jadvalda an'anaviy va intensiv bog'dorchilik tizimlari o'rtasidagi ayrim iqtisodiy farqlar ko'rsatib o'tilgan. Tahlillarga ko'ra, intensiv bog'dorchilikda hosildorlik va mahsulot sifati yuqori bo'lishi bilan birga, suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati ham kengayadi. Shuningdek, zamonaviy agrotexnologiyalar mehnat unumdorligini oshirib, eksportbop mahsulotlar yetishtirishga yordam beradi. Shu sababli intensiv bog'dorchilik iqtisodiy jihatdan samarali tizimlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida intensiv bog'dorchilikda innovatsion agrotexnologiyalarni qo'llash qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. O'rganilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar yordamida hosildorlikni oshirish, suv resurslarini tejash va mahsulot sifatini yaxshilash imkoniyati kengaymoqda. Ayniqsa, tomchilatib sug'orish, agrodronlar va raqamli monitoring tizimlari intensiv bog'dorchilikni rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, tomchilatib sug'orish texnologiyasi suv resurslaridan samarali foydalanishda yuqori natija bermoqda. Ushbu texnologiya orqali suv bevosita o'simlik ildiziga yetkaziladi va ortiqcha suv sarfining oldi olinadi. Bu esa suv resurslaridan oqilona foydalanish talab etiladigan hududlarda intensiv bog'dorchilikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, tuproqdagi namlikning barqaror saqlanishi hosildorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Agrodron texnologiyasi katta maydonlarni qisqa vaqt ichida kuzatish va kimyoviy ishlov berish imkonini bermoqda. Tadqiqot davomida dronlardan foydalanish natijasida inson mehnati va vaqt sarfining kamayishi kuzatildi. Bundan tashqari, dronlar yordamida o'simliklarning zararlangan qismlarini aniqlash va zarur ishlovlarni tezkor amalga oshirish mumkin bo'ladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va aqlli boshqaruv tizimlari qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida baholanmoqda (Yuldashev va b., 2019).

IoT sensorlari va raqamli monitoring tizimlari yordamida tuproq namligi, harorat va o'simliklar holati haqida doimiy ma'lumot olish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Ushbu texnologiyalar fermerlarga o'simliklarning holatini masofadan nazorat qilish imkonini beradi. Natijada kasallik va zararkunandalarni dastlabki bosqichda aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi hamda hosil yo'qotilishi kamayadi. Aqlli monitoring tizimlari mikroiklim ko'rsatkichlarini nazorat qilish va sug'orishni optimallashtirishda yuqori samaradorlik ko'rsatishi qayd etilgan (Kumar va b., 2024).

Tadqiqot davomida innovatsion agrotexnologiyalar iqtisodiy samaradorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Intensiv bog'larda mahsulot sifati va eksport hajmining oshishi fermer xo'jaliklari daromadining ko'payishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, eksportbop meva mahsulotlarini yetishtirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni katta ekanligi aniqlandi. Intensiv meva yetishtirish tizimi eksport salohiyatini oshirishda muhim omillardan biri sifatida baholanmoqda (Yunusov & Demirsoy, 2024).

Shu bilan birga, intensiv bog'dorchilikni yanada rivojlantirish uchun bir qator imkoniyatlar mavjudligi kuzatildi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish fermer xo'jaliklarida ularni joriy etish ko'lamini oshirishga xizmat qiladi. Ayrim hududlarda internet va raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish agrotexnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatini oshirish zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalarni boshqarish jarayonida infratuzilma va tashkiliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligi ham ayrim tadqiqotlarda qayd etilgan (Hamidov, 2022).

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar suv va mehnat resurslarini tejash bilan birga, hosildorlik va mahsulot sifatini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Ayniqsa, raqamli monitoring va IoT sensorlari yordamida



o'simliklar holatini doimiy nazorat qilish imkoniyati intensiv bog'dorchilik samaradorligini sezilarli darajada yaxshilamoqda (3-jadval).

3-jadval  
Innovatsion agrotexnologiyalarning amaliy natijalari<sup>4</sup>


| Texnologiya turi       | Kuzatilgan natija              | Intensiv bog'dorchilikka ta'siri |
|------------------------|--------------------------------|----------------------------------|
| Tomchilatib sug'orish  | Suv sarfi kamaydi              | Hosildorlik oshdi                |
| Agrodron               | Vaqt va mehnat tejaldi         | Ish samaradorligi oshdi          |
| IoT sensorlari         | Tuproq monitoringi yaxshilandi | Hosil sifati oshdi               |
| Raqamli monitoring     | Kasalliklar erta aniqlandi     | Mahsulot yo'qotilishi kamaydi    |
| Aqlli agroplatformalar | Ma'lumotlar tez tahlil qilindi | Qaror qabul qilish tezlashdi     |

Jadvalda intensiv bog'dorchilikda qo'llanilgan innovatsion agrotexnologiyalar va ularning amaliy natijalari ko'rsatib o'tilgan.

Rasmda intensiv bog'dorchilikda innovatsion agrotexnologiyalarni qo'llash natijasida kuzatilgan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari tasvirlangan. Tahlil natijalariga ko'ra, hosildorlikning oshishi eng yuqori natijalardan biri sifatida qayd etildi. Bu zamonaviy sug'orish tizimlari, raqamli monitoring va aqlli boshqaruv texnologiyalarining samarali qo'llanilishi bilan bog'liq.

Shuningdek, suv tejalishi va mahsulot sifatining yaxshilanishi ham muhim natijalardan biri bo'ldi. Ayniqsa, tomchilatib sug'orish tizimi suv resurslaridan samarali foydalanishga yordam bermoqda. Agrodronlar va IoT sensorlari esa mehnat unumdorligini oshirish va o'simliklar holatini doimiy nazorat qilish imkonini yaratmoqda (2-rasm).

#### INTENSIV BOG'DORCHILIKDA INNOVATSION AGROTEXNOLOGIYALAR SAMARADORLIGI



2-rasm. Innovatsion agrotexnologiyalarning intensiv bog'dorchilikdagi samaradorligi<sup>5</sup>

Tadqiqot davomida eksport imkoniyatlarining kengayishi ham kuzatildi. Yuqori sifatli va eksportbop mahsulotlar yetishtirishda innovatsion agrotexnologiyalar muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli zamonaviy texnologiyalar intensiv bog'dorchilikni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida baholanmoqda.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda intensiv bog'dorchilikni rivojlantirish qishloq xo'jaligining eng muhim va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotgan bir sharoitda mavjud yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, yuqori hosildorlikka erishish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli intensiv bog'dorchilik tizimida innovatsion agrotexnologiyalarni keng qo'llash zamonaviy qishloq xo'jaligining asosiy rivojlanish omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

<sup>4</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>5</sup> Muallif ishlanmasi



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion agrotekhnologiyalarni qo'llash hosildorlikni oshirish, suv resurslarini tejash va mahsulot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tomchilatib sug'orish texnologiyasi suvdan oqilona foydalanish imkonini yaratib, hosildorlikning oshishiga xizmat qilmoqda. Agrodron texnologiyasi esa katta maydonlarga qisqa vaqt ichida ishlov berish, o'simliklarni kuzatish va zararkunandalarga qarshi kurashishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. IoT sensorlari va raqamli monitoring tizimlari yordamida tuproq namligi, harorat va o'simliklar holatini doimiy nazorat qilish imkoniyati yaratilmoqda.

Tahlillar davomida zamonaviy texnologiyalar yordamida mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va eksportbop mahsulotlar yetishtirish imkoniyati kengaygani aniqlandi. Ayniqsa, intensiv bog'larda yuqori sifatli va xalqaro standartlarga mos mahsulotlar yetishtirish eksport hajmini oshirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, aqlli agroplatformalar va raqamli boshqaruv tizimlari fermerlarga ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish hamda aniq qarorlar qabul qilish imkoniyatini bermoqda. Bu esa qishloq xo'jaligida raqamlashtirish jarayonining ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Innovatsion agrotekhnologiyalar ekologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, o'g'it va kimyoviy vositalarning me'yorida qo'llanilishi hamda mahsulot yo'qotilishining kamayishi ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar orqali mahsulot sifatining yaxshilanishi va saqlash muddatining uzayishi oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, intensiv bog'dorchilikni yanada rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, texnik infratuzilmani izchil rivojlantirish va malakali mutaxassislarini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim fermer xo'jaliklarida zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha amaliy bilim va tajribani yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Shu sababli fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar ajratish, agrotekhnologiyalar bo'yicha amaliy treninglarni tashkil etish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, innovatsion agrotekhnologiyalar intensiv bog'dorchilikning kelajakdagi rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini kuchaytirish va ekologik barqarorlikka erishish mumkin. Kelgusida intensiv bog'dorchilikni yanada rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etish hamda xalqaro tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yunusov R. Intensiv olma daraxtlarining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi nav-payvandtaglari va ko'chat qalinligiga bog'liqligi // *Agrokimyo himoya va o'simliklar karantini*. – 2025. – DOI: 10.63241/2025251akhv.
2. Yunusov S., Demirov H. A Bright Star in Fruit Crops: Uzbekistan // *Applied Fruit Science*. – 2024. – Vol. 66. – P. 2091–2100. – DOI: 10.1007/s10341-024-01177-7.
3. Shavazov K., Khojibekova S., Mukimov B., Umirov A., Kadirova S. State and Development of Farms in Uzbekistan as a Basis for Food Security // *BIO Web of Conferences*. – 2025. – DOI: 10.1051/bioconf/202516100027.
4. Yuldashev N., Nabokov V., Nekrasov K., Tursunov B. Modernization and Intensification of Agriculture in the Republic of Uzbekistan // *E3S Web of Conferences*. – 2020. – Art. 06033. – DOI: 10.1051/e3sconf/202022206033.
5. Khudaev I., Fazliev J. Water-Saving Irrigation Technology in the Foothill Areas in the South of the Republic of Uzbekistan // *Modern Innovations, Systems and Technologies*. – 2022. – DOI: 10.47813/2782-2818-2022-2-2-0301-0309.
6. Majidov T., Bekmirzaev G., Ikramov N., Kan E., Berdiev M., Buvabekov B., Majidov F. Use of Mobile Photothermic Installation on Application of Drip Irrigation Technology in Orchards of Mountain and Foothill Areas of Uzbekistan // *Water*. – 2025. – Vol. 17. – Art. 872. – DOI: 10.3390/w17060872.
7. Ilkhamov N. Growing of Cabbage in Water Efficient Irrigation Methods in Uzbekistan // *E3S Web of Conferences*. – 2023. – Art. 03053. – DOI: 10.1051/e3sconf/202338903053.
8. Yang P., Wu L., Cheng M., Fan J., Li S., Wang H., Qian L. Review on Drip Irrigation: Impact on Crop Yield, Quality, and Water Productivity in China // *Water*. – 2023. – Vol. 15. – Art. 1733. – DOI: 10.3390/w15091733.
9. Li H., Mei X., Wang J., Huang F., Hao W., Li B. Drip Fertigation Significantly Increased Crop Yield, Water Productivity and Nitrogen Use Efficiency with Respect to Traditional Irrigation and Fertilization Practices: A Meta-Analysis in China // *Agricultural Water Management*. – 2021. – Vol. 244. – Art. 106534. – DOI: 10.1016/j.agwat.2020.106534.



10. Zhang W., Sheng J., Zheng L., Weindorf D., Hu G., Xuan J., Zhao H. Integrating Rainwater Harvesting and Drip Irrigation for Water Use Efficiency Improvements in Apple Orchards of Northwest China // *Scientia Horticulturae*. – 2021. – Vol. 275. – Art. 109728. – DOI: 10.1016/j.scienta.2020.109728.
11. Wen S., Cui N., Wang Y., Gong D., Xing L., Wu Z., Zhang Y., Wang Z. Deficit Irrigation Enhances Yield and Water Productivity of Apples by Inhibiting Excessive Vegetative Growth and Improving Photosynthetic Performance // *Agricultural Water Management*. – 2025. – Art. 109220. – DOI: 10.1016/j.agwat.2024.109220.
12. Ozodbek T., Vohid K., G'ayrat T., G'olib S. Rational Use of Water Resources in Agriculture (In the Case of Uzbekistan) // *International Journal of Business Diplomacy and Economy*. – 2024. – DOI: 10.51699/ijbde.v3i5.169.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 8/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---